

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 11 Jild 4

**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 11 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич</i> “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА .....	12-17
<i>Эгамбергенов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли</i> ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА) .....	18-25
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> ҚО’ҚОН ХОНЛАРИ СУЛОЛАСИНИНГ ГЕНЕОЛОГИК ТАҲЛИЛИ .....	26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i> О’ЗБЕКИСТОНДА XX-АСРНИНГ 20-40-ЙИЛЛАРИДА СANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI .....	32-38
<i>Asadova Ra’no Baymanovna</i> О’ЗБЕК- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO’TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI .....	39-42
<i>Saidova Raxima</i> О’ЗБЕКИСТОН ВА ИТАЛИЯ MUNOSABATLARINING ME’YORIY-HUQUQIY MANBALARI ....	43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi</i> AFROSIYOB ARXEOLIGIK YODGORLIGINING O’RGANILISH TARIXI .....	49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i> TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR .....	56-60
<i>Mirsoatova Sayyora Turg’unovna</i> QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIIY DAVR IQTISODIIY HAYOTINING AKS ETISHI .....	61-66
<i>Лухмонов Шахзод Сайфиддин ўғли</i> ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР .....	67-71
<i>Axmedov Bekzod</i> SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O’ZBEKISTONDA QORAKO’LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI.....	72-75
<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o’g’li</i> NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIIY HAYOTIDAGI O’RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA) .....	76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo’latovich</i> SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIIY YO’NALISHLARI .....	81-88

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*

ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ  
РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ..... 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*

ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА  
В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ..... 94-99

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Tursunov Bekmuxammad Omonovich*

IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI  
RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ..... 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*

«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN  
MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI ..... 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*

INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA  
ERISHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA..... 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*

КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ  
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 126-134

*Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich*

KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI..... 135-142

*Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli*

MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING  
OF GOODS AND SERVICES ..... 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi*

MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI  
TASNIFI ..... 153-160

*Sharipov Komil*

MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ..... 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*

MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI  
QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*

SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN  
UZBEKISTAN..... 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*

TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING  
TAHLILI ..... 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li*

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH  
XUSUSIYATLARI ..... 197-202

*Рахимов Бахромжон Ибрахимович*

ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО  
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ..... 203-209

*Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATI (NAMANGAN  
VILOYATI TAHLILIDA)..... 210-216

*Hasanov Ilkhom Isakovich*

IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE  
AGRICULTURE OF UZBEKISTAN..... 217-221

*Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna*

CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING  
XUSUSIYATLARI ..... 222-227

*Maxmudov Jasurbek Ergashevich*

INNOVATION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY  
JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI ..... 228-233

*Ravshanov Nodirjon Begalievich*

TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI  
OSHIRISHNING AHAMIYATI ..... 234-243

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*

SHIHOIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOY-SIYOSIY  
VAZIYATLARNING TA'SIRI ..... 244-248

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*

XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI  
VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI..... 249-254

*Saburov Jaloliddin*

XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY  
HAYOT RIVOJI ..... 255-260

*Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich*

NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA  
MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 261-265

*Saidkulov Nuriddin Akramkulovich*

FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY ..... 266-271

*Adilov Zafar Yunusovich*

MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH  
MEVALAR MASALASI ..... 272-277

*Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich*

ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND  
PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE  
YOUNG GENERATION ..... 278-282

*Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich*

TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING  
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ..... 283-287



**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ..... 288-295

*Daliyeva Madina*

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 296-300

*Paluanova Khalifa*

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ..... 301-306

*Равшанов Махмуд*

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ..... 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna*

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ..... 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon o'g'li*

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ..... 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI ..... 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ..... 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ..... 335-339

*Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna*

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ..... 340-345

*Расулова Камола*

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ..... 346-353

*Омонов Турғунбой*

“СУҒУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ..... 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ..... 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" ..... 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudaliyevna*

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 377-381

*Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi*

SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK

TAHLILI ..... 382-385

*Yuldasheva Nigora Baxodirovna*

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI ..... 386-390

*Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi*

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI ..... 391-396

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Рузметов Хайрулла*

ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ  
КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ..... 397-402

*Ачилова Лилия Илхомовна*

ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ  
МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ  
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ..... 403-410

*Abdubannayev Umidjon*

AXBOROTGA BO'LGAN INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING  
RIVOJLANISH BOSQICHLARI ..... 411-421

*Халиқулов Комолиддин Носирович*

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА  
ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ ..... 422-427

*Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли*

ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА  
ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ..... 428-433

*Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли*

ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ  
МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ..... 434-439

*Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich*

IJTIMOIIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA  
QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA ..... 440-446

*Алиев Асилбек Кадирович*

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ  
АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ..... 447-451

*Нодирахон Абдурахманова*

РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ  
АСПЕКТЫ ..... 452-462

*Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич*

РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ ..... 463-469

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Xusanova Mohira*

OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i> ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ .....	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH .....	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i> TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI .....	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i> MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV .....	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i> TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI .....	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i> SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI .....	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i> MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI .....	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY .....	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i> THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS .....	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i> TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI .....	565-568

**09.00.00-FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES**

**Received:** 31 October 2024  
**Accepted:** 5 November 2024  
**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

**INFLUENCE OF SOCIAL AND POLITICAL SITUATION ON PHILOSOPHICAL  
VIEWS OF SHIKHOBIDDIN SUKHRAVARDI**

**Murtozaev Shahobiddin Bakhridinovich**

Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of Social Sciences,  
Doctor of Philosophy (PhD)

**Abstract.** This article analyzes the influence of the socio-political situation in the medieval Islamic world on the formation and development of the worldview of Shihab al-Din Suhrawardi. It also emphasizes the importance of justice and enlightenment in society through his philosophical perspectives and works. The inseparable connection of these aspects with the political systems, as well as the religious and spiritual environment of that time, is examined. Additionally, the article discusses Suhrawardi's relationships with the social environment, his interactions with rulers and scholars, and explores how political instability, religious conflicts, and cultural changes influenced Suhrawardi's philosophy and beliefs.

**Key words:** Religion, creed, tariqat, Sufism, muhaddis, mutakallim, spirituality, enlightenment, thought, society, education, logic, mind.

**SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOY-SIYOSIY  
VAZIYATLARNING TA'SIRI**

**Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich**

Buxoro davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shihobiddin Suhravardiy dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishida o'rta asr Islom dunyosidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning ta'siri tahlil qilinib, uning falsafiy qarashlari hamda asarlari orqali jamiyatdagi adolat va ma'rifatning ahamiyatiga bergan ta'kidlari, o'sha davrda hukm surgan siyosiy tuzumlar, diniy va ma'naviy muhit bilan uzviy bog'liqligi o'rganilgan. Shuningdek, Suhravardiyning ijtimoiy muhit bilan aloqalari, uning hukmdorlar va olimlar bilan bo'lgan munosabatlari xususida batafsil so'z yuritilib, o'sha davrning siyosiy beqarorligi, diniy ziddiyatlar va madaniy yangilanishlar Suhravardiy falsafasi va uning e'tiqodlariga qay darajada ta'sir ko'rsatgani ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Din, aqida, tariqat, tasavvuf, muhaddis, mutakallim, ma'naviyat, ma'rifat, tafakkur, jamiyat, ta'lim, mantiq, aql.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N32>

**Kirish.** O'rta asrlarning murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitlari xalqning turmush tarziga hamda tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Suhravardiy yashagan davrda Movarounnahr va Xuroson hududlarida notinchlik, toju-taxt uchun kechgan kurashlar, ijtimoiy hayotdagi turli muammolar, abbosiylardan qolgan tartiblar hamda saljuqiylar hukmronligidagi beqarorlik

uning hayoti va dunyoqarashining shakllanishiga asosiy turtki bo'lgan. Suhravardiy o'zining "Avorif ul-maorif" asarida turli diniy firqalar, shia va sunniy oqimlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib, o'sha davrning xarakterini yoritishga katta e'tibor qaratgan. Chunki, xalifalikda tarqoqlik va boshboshdoqlik, xalifa tomonidan tayinlangan noib va vakillarning o'zboshimchaliklari ijtimoiy-siyosiy vaziyatni yanada taranglashtirgan edi. Ko'plab ilm ahllari qatori Suhravardiy ham ilm izlab Bog'dodga borishga majbur bo'lgan.

**Asosiy qism.** Movarounnahr va Xuroson hududlarida ijtimoiy-ma'naviy muhitga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri islom dini va uning aqidalariga asoslangan turmush va tafakkur tarzining jamiyat ma'naviy hayotiga singib borishi bilan ajralib turadi. Bu davrda arab xalifaligining Movarounnahr va Xurosondagi ta'siri pasayib, shia va sunniy oqimlari o'rtasidagi nizolar hamda turli tariqatlarning faoliyati kuchaygani kuzatilgan. Arab va fors tillari asosiy muomala tili bo'lib, fan va adabiyot sohalarida keng qo'llanilgan. Qur'on, hadis va islom ilmlariga katta e'tibor qaratilgan davrda, shuningdek, aniq fanlar, astronomiya va tabiatshunoslik kabi sohalar rivojlanish bosqichida bo'lgan, va ko'plab olimlar o'z ta'limotlari bilan tanilgan edilar. Bu hududda G'azzoliy, Nasiriddin Tusiy, Sa'diy Sheroziy kabi buyuk allomalar faoliyat ko'rsatganini qayd etish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tasavvuf shayxlari, muhaddislar, mutakallimlar va ulamolar o'z qarashlari bilan jamiyatning ma'naviy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatganlar.

Ilk o'rta asrlardagi mumtoz davr deb ataladigan oltin davrda erishilgan ilmiy va diniy-falsafiy yutuqlar keyingi barcha davrlar uchun manba bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan, XIII asrda ham bu vorislik an'analari davom ettirilgan.

Shihobiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad as-Suhravardiy dastlabki, ta'limni o'sha davrning ma'rifat markazlaridan hisoblangan Marog'a shahridagi madrasalardan birida olishi uning nafaqat diniy-tasavvufiy, balki, aniq fanlar, falsafa va mantiqqa bo'lgan qiziqishlarini ham oshirgan. Ma'lumki, Marog'a rasadxonasi mashhur mutafakkir, qomusiy olim Nasiriddin Tusiy say'- harakatlari bilan barpo etilgan. Ushbu Marog'a shahridagi ilm markazi davrning ko'plab yirik allomalarini yetishtirib chiqargan, u yerda faoliyat olib borgan allomalarning ilmiy izlanishlari o'ziga xos tarzda muhitni, shahar ijtimoiy-madaniy, ma'naviy hayotining barqarorlashishiga ta'sirini ko'rsatgan. Jumladan, Suhravardiy Azzuddin Abdussalom, Faxruddin Roziy kabi mashhur olimlar bilan birga tahsil olgan, ular bilan doimiy ilmiy bahslar olib borganligi manbalarda ta'kidlangan [1].

Shihobiddin Suhravardiy Muqtafiy Billoh (1136-1160), Mustanjid Billoh (1160-1170) Mustaziy Billoh (1170-1180) Nosir-ad-dinulloh (1180-1225), Zohir Billoh (1225-1226) va Muntansir Billoh (1226-1243) [2] kabi xalifalarning hukmronligiga va ular olib borgan siyosatga guvoh bo'lgan. Suhravardiyning Abbosiylar sulolasi tanazzulining shohidi bo'lganligi tarixiy manbalarda o'z ifodasini topgan. Arab xalifaligining zaiflashuvi, saljuqiylar hukmdorlarning boshqaruvi ostida yashagan xalqlarning ahvoli, mamlakatdagi murakkab vaziyat madaniy rivojlanish, ijtimoiy hayotning barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan.

A.Knish fikriga ko'ra, Suhravardiy Nosir rahbarligida xalifalikni qayta tiklash borasidagi faoliyatini baholash mushkul [3]. Xalifa uni Suriya va Misrning Ayyubiylar hukumati saroyi huzuridagi shaxsiy elchisi qilib tayinlaydi. Shu lavozim sababli Suhravardiyga yuqori martabali davlat arbobi sifatida murojaat qilganlar. Shayxning kelishi sharafiga tantanali yurish tashkil etilgan. Bog'dodga qaytganda xalifaning o'zi kutib oladi. Suhravardiyning "dunyoviy" mavqega qiziqib qolishi uning so'fiylarga xos kamtarona hayot tarziga ta'sir qilgan. Bundan norozi

bo'lgan xalifa uni rabotni boshqarishdan chetlashtirgan va xalq oldida va'z aytishdan mahrum etgan. Biroq, oradan o'n yil o'tgandan so'ng Nosir yana Hamadonga Xorazmshoh Alouddin Muhammad II Bag'dodni o'z hokimiyatiga bo'ysundirish uchun harbiy tayyorgarlik ko'rayotgan bir paytda Suhravardiy qabul qiladi. Suhravardiy xalifa bilan Xorazmshohni yarashtirishga erisha olmagan.

Suhravardiy yashagan davrda, birinchidan, mintaqada notinchlik va kurashlar hukm surgan, ikkinchidan, ijtimoiy hayot izdan chiqqan bo'lib, abbosiylardan qolgan tartiblar o'zini oqlamagan, uchinchidan esa saljuqiylar hukmronligidagi beqarorlik uning hayoti va dunyoqarashining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu uning "Avorif ul-maorif" asarida turli diniy firqalar, shia va sunniy oqimlari o'rtasidagi munosabatlarga bag'ishlangan fikrlarida aks etadi. Chunki, keng hududni qamrab olgan xalifalikda tarqoqlik va boshboshdoqlik mavjud bo'lgan, xalifa tomonidan tayinlangan vakillarning o'zboshimcha harakatlari esa vaziyatni yanada murakkablashtirgan edi.

Suhravardiy tasavvuf va tariqatlarga qiziqishi hamda keyinchalik Suhravardiya tariqatining asoschisi bo'lishida amakisi Abu Najib as-Suhravardiy katta rol o'ynagan. Uning so'fiylik qarashlari va olam hamda inson haqidagi falsafiy fikrlari o'z yurtida tahsil olayotgan davrida va ilm izlab Isfahon hamda Bog'dod shaharlariga qilgan safarlari davomida yanada rivojlangan.

Mutasavvif uzoq umr ko'rgan va hayoti davomida deyarli har yili Haj safariga borgan. Shihobiddin Abu Hafs Umar ibn Abdulloh as-Suhravardiyning asl ismi Umar bo'lib, otasining ismi Muhammad edi. Suhravardiy Abu Hafs va Abu Abdulloh nomlari bilan ham tanilgan. Shuningdek, u "Shihobiddin", "Shayxul islom" va "Shayxul orifin" kabi unvonlar bilan ham mashhur bo'lgan. Suhravardiy shajarasi xalifa Abu Bakr Siddiqqa borib taqalganligi sababli, ba'zi manbalarda uni "Al-Baqriy", "At-Taymiy" va "Al-Qurayshiy" nomlari bilan ham tilga olishadi. Aflokiy esa Umar Suhravardiyning Abu Bakr Siddiqqa bog'liqligini qayd etib, uning mavlono Jaloliddin Rumiy bilan qarindoshligi haqida ham ma'lumot beradi [4].

Shihobiddin Suhravardiy ulug' nasabga ega taqvodor ziyoli oilada tug'ilib voyaga yetgan. Uning ilm ma'rifatga bo'lgan qiziqishi dunyoqarashining shakllanishi oilasining muhiti bilan chambarchas bog'liq. Qur'on va hadislarni mukammal o'zlashtirgan alloma ahli sunna va jamoa aqidasi tayangan. Suhravardiy oilasidan bir nechta so'fiylar va ulamolar yetishib chiqqan bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Abu Najib Ziyouddin Abdulqodir as-Suhravardiy - "Adab al-muridin" (Muridlar odobi) asarining muallifi bo'lib, Suhravardiyga amaki va ustoz edi. Suhravardiyning otasi Abu Jafar Muhammad as-Suhravardiy, bobosi esa, Abdulloh Sa'd Ammoyi bo'lgan [5].

2. Otasi Abu Jafar Muhammad Suhrovarddan borib Bog'doddagi Nizomiya madrasasida Asad al-Mihoniy ustozidan fiqh ilmi bo'yicha ta'lim olgan hamda bir muddat Nizomiya madrasasida mudarrislik qilgan. Shu bilan bir vaqtda "Kasr" jome' masjidida voizlik qilib, va'zlar o'qigan. Ba'zi manbalarda Abu Jafar Muhammad Suhravardiyning qozi lavozimida ishlagani haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi. Abu Jafar Muhammad Suhravardda qozilik qilgan davrida tuhmatga uchrab o'limga hukm qilingan. Shihobiddin Umar Suhravardiy bu paytda tug'ilganiga olti oy bo'lgan edi. Suhravardiyning Bog'dodda Abdul Malik Muhammad ismli boshqa onadan tug'ilgan ukasi borligi manbalarda keltiriladi [4].

Shihobiddin Suhravardiy dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatgan omillardan yana biri yunon faylasuflarining qarashlari bo'lgan. Uning "Kashf alfidoyix al-yo'naniyna va rashf annasaix an-

imoniya” - qadim yunon falsafasi, jumladan Arastu peri-patetizmini tanqid qilishga bag'ishlangan [3].

Vatanimizda Suhravardiy ijodini uning avlodidan hisoblangan Omonulla Fayzullayev bu haqida quyidagilarni yozadi: “Odam tabiatning bir qismi bo'lgani uchun, tabiatning odamga tegishli qisminigina bilish bilan kifoyalanadi. Shu bilan suhravardiyya Aristotelning naturfilosofiyasidan, al-Xorazmiy - al-Farg'oniy – al-Farobiy – Beruniy – Ibn Sino – Ulug'bekning tabiatshunoslik falsafasidan farq qiladi” [3]. Shihobiddin Suhravardiy tasavvufiy qarashlariga amakisi Abu Najib Suhravardiy, Abdulqodir Jiloniylarning o'ziga xos ta'siri bo'lgan. Shular asosida keyinchalik Suhravardiya tariqatining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan. Bu tariqat manbalari ko'proq hind-musulmon jamiyatlarida shakllangan tariqatlar uchun xizmat qilgan.

Shihobiddin Suhravardiy Qur'on ma'rifatini anglagan holda odam va olam Allohning irodasi bilan yaratilganligini uqtiradi. Uning fikriga ko'ra, yaratilishning sababi ikki dunyoning ma'murligidir. Inson ruhi oliy samoviy bo'lib, u “amr olami”dan, “hayvoniy ruh” xalq olamidani, hayvoniy bashariy ruh oliy samoviy ruhning joylashadigan joyi ekanligi va Alloh odamni “dorayn” (“dunyo va oxirat”) ni ma'mur qilish uchun yaratgan. Alloh undan jannatni ma'mur qilishini istaganidek, dunyoni ham ma'mur qilishini istagan [6]. Demak, inson ikki olam saodatiga erishish imkoni berilgan mavjudotdir. Uning olamga, atrofga bo'lgan munosabati, tafakkuri, aqli hamda ma'rifatiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, inson o'zini anglasa, uning dunyoda mavjudligi buyuk hikmat ekanligini bilsa va yomonlikdan qaytib, yaxshilik, ezgu amallar qilsa, e'tiqodi mustahkam bo'lsa, insoniylik mas'uliyatini his etsa, ikki olam saodatiga erishadi. Suhravardiy insonni ma'rifatli bo'lishga, Haq ma'rifatini anglashga undaydi. Bu o'z-o'zidan amalga oshmasligini uqtirib, buning uchun inson shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat ilmlarini o'zlashtirishi shundan so'ng laduniy ilmlarga erishishini ta'kidlaydi [7].

Suhravardiyning ta'kidlashicha: “Agar murid doim Qur'onni o'qib, qalbi va tilini bir tutsa, nafsining e'tirozlariga mone' bo'ladi va solik osonlik bilan Qur'onni qiroat qilib, ibodatida bardavom bo'ladi. Qur'on tilovati va namozdagi bu “suhulat” solik ko'ngilni nurlantiradi. Ilohiy kalomning nuri javhar sifatida qalbda o'rin oladi. Qur'on tilovati Haq zikri darajasida bo'ladi. Allohning kalom sifati buyukligining mushohadasi bilan ilohiy kalom nuri qalbda to'planadi. Bunday ilohiy darajalarga erishmasdan bandaga “ladun ilmi” eshiklari ochilmaydi” [6]. Demak, “ilmi ladun” osonlikcha qo'lga kiritiladigan ilm emas. Laduniy ilm payg'ambarlar, valiy zotlar erishgan ilmlardandir. Bu ilmning mutlaq haqiqatini Allohning huzuridan ekanligi, uni tom ma'noda anglay olish idrok chegaralarimizdagi bir ma'naviy-ruhiy holatdir. Yaratuvchi va inson munosabatlaridagi “ilmi ladun”ning insonga Haq tomonidan berilishi uning boshqa ilmlarni egallab, yuksak maqomlarga erishgandan keyingi hadyasi hisoblanadi.

Shihobiddin Suhravardiyning aql haqidagi qarashlari ko'p jihatdan boshqa allomalar qarashlaridan farq qiladi. Uning ta'kidlashicha, “Aqlga kelsak, u ruhning tili va basiratning tarjimonidir. Ruh uchun basirat (ko'rish) uning qalbi, aql esa uning tili o'rnidadir”. Inson o'zligini tushuntirishda “aql” ga e'tibor qaratib, “Hamma narsaning o'z o'zligi bor. Insonning o'zligi uning “aqli”, aqlning o'zligi esa sabr”, -deb tushuntiradi [6]. Demak, Shihobiddin Suhravardiy irfoniy-gnoseologik qarashlarida aqlga alohida o'rin berilishi, kamdan-kam mutasavviflarda uchraydigan o'ziga xos jihat hisoblanadi.

Shihobiddin Suhravardiy “aql jilolanuvchi javhar”dir deya ta'rif bergan. Shu bilan birga, aql xususidagi “Xoris al-Muhosibiyning “Aql ilmlarning o'zi bilan idrok qilinadigan bir tabiatdir” – degan fikrlari bilan qiyosiy tahlil etilganda, mutasavviflarning gnoseologik mohiyatga ega qarashlarining o'xshash va farqli jihatlari namoyon bo'ladi. Aytish mumkinki, Suhravardiy



Aflotun, Aristotel merosini o'rgangan va ular qarashlarining mohiyatini tushungan hamda aql haqidagi qarshalarida buning ta'siri sezilib turadi.

Shihobiddin Suhravardiyning "Aql ulviy bo'lgan insoniy ruhning javhari, uning tili va yo'l ko'rsatuvchisidir" – g'oyasi aql va ruh uyg'unligi quvvati haqidagi qarashlarida ilgari surilgan, mutasavvif irfoniy qarashlarining o'ziga xos "mo'tadil irfon konsepsiyasi"ga asoslanganligi ilmiy isbotlangan. Shuningdek, mutasavvifning "Aql ruhning tili, ruh Allohning amri, aqlning nuri ruhdan fayz olishi, ilmlar ham aql nuri bilan jilolanishi, aql ilmlarga ko'ra, yozuv taxtasi hukmida" ekanligi xususidagi irfoniy qarashlari uning gnoseologik qarashlarining mag'zini tashkil qiladi. Shihobiddin Suhravardiy fikricha, aql ruh bilan birga borliq va kishilikka erishadi. U bilan ashyo ustida hujjat keltirishi mumkin. Agar ruh bo'lmasa, aql o'tmaslashib, hech qanday narsaning qarshisida yoki yonida dalil keltirilmas edi" [6].

Xulosa qilib aytganda, Shihobiddin Suhravardiy falsafiy qarashlaridagi yuksalish o'sha davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitlari bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, Suhravardiyning ezgulik, adolat, va ma'rifatga bo'lgan chaqiriqlari o'sha davr siyosiy beqarorliklari, diniy ziddiyatlari va madaniy yangilanishlari ta'sirida chuqurlashgan. Uning asarlarida hukmron siyosiy va ijtimoiy tuzumga nisbatan tanqidiy qarashlar, haqiqat va ma'naviyatga intilish asosiy o'rinni egallagan. Shu bois, Suhravardiy ta'limoti nafaqat falsafiy-madaniy meros sifatida, balki o'z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga javob sifatida ham qabul qilinishi kerak. Mazkur tadqiqot Suhravardiy falsafasining faqatgina nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi va uning ta'limoti zamon va makon doirasidan chiqib, universal ahamiyat kasb etganini isbotladi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Palmer E.H. Oriental Mysticism. London, 1969. -p. 232.
2. Воҳидов Ш., Қодиров А. "Шарқнинг машҳур сулолалари" -Тошкент: Академ нашр, 2013. -Б. 80.
3. Файзуллаев О. Сухравардия. // Мулоқот. 1998, 6-сон. -б. 16-18.
4. Corbin, Henry, Alone with the Alone: Creative Imagination in the Sûfism of Ibn 'Arabi, Princeton University Press, New Jersey 1998, -p. 71.
5. Eflakî, Menâkibü'l-Ârifn, nşr. Tahsin Yazıcı, Ankara 1947, c.1, -s. 45.
6. شهاب الدين سهروردی. عوارف المعارف № Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, hujjatlar fondi, 21125/11. –B. 68, 71, 144, 145, 147, 159.
7. Шодиев Р., Бахриева Д.Х. Суфизм в духовные жизни народов Мавераннахра. (XI-XII) – Самарқанд: 2018, - 75.
8. BAHRIDDINOVICH, Murtazoyev Shahobiddin. The Spiritual Heritage of Abu Hafs Umar Suhrawardi and its significance for the Contemporary World. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 2021, 2.3: 53-60.
9. MURTOZAYEV, Shahobiddin. Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili. *Farg'ona davlat universiteti*, 2023, 1: 192-192.
10. BAXRIDDINOVICH, Murtozayev Shahobiddin. Shihabuddin al-Suhrawardi's views on sufism and his scientific heritage in central asia. 2023.
11. BAXRIDDINOVICH, Murtozayev Shahobiddin. SHIHABIDDIN SUHRAWARDY'S VIEWS ON ETHICS. *Innovative Developments And Research In Education*, 2023, 2.16: 11-16.
12. BAXRIDDINOVICH, Murtozayev Shahobiddin. SHIHABIDDIN SUHRAWARDY'S VIEWS ON ETHICS. *Innovative Developments And Research In Education*, 2023, 2.16: 11-16.
13. МУРТОЗАЕВ, Шахобиддин. SHIHABUDDIN UMAR SUHRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 2023, 3.S/8.



**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 11 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).